

## Bir asar tarixida Iqbol Mirzoning “Bonu” romani.



Men bu romanni o`qir ekanman asli Buxorolik bo`lgan, go`zal o`qituvchi qiz taqdiri qalbimni larzaga keltirdi. Romanni sevimli yozuvchimiz Iqbol Mirzo 2016-yilda yozgan. Romanni juda tez fursatda o`qib tugatganman. Chunki roman kichik estalik shaklida juda qiziqarli hayotiy voqealar asosida yozilgan. Balki shuning uchun ham bu roman meni sevib o`qigan asarlarimdan biri bo`lib qoldi. Bu roman kitobxonlar o`rtasida juda mashxur va muhokomalarga sabab bo`lib minglab insonlar tomonidan o`qib chiqilishga ulgurdi. Hattoki romanning bosh qahramoni bo`lgan Bonuning kitobda qoldirilgan telefon raqami bilan bog`lanib haqiqatdan ham shu voqealar bo`lganmi hayotingizda deb suhbatlashgan odamlar bilan uchrashishga muvaffaq bo`ldim. Siz kitobxonlarga romanning barcha voqealarini aytib bera olmasamda hayotning turfa girdoblarini ayol bo`lishiga qaramasdan insoniylikning eng oliy tug`ularini buzmasdan, sabr bilan yengib o`tganligi tahsinga sozovor ekanligini aytib o`tmoqchiman. Yana bir esimda qolgan jihatlaridan Bonu o`z taqdirida sodir bo`lgan har qanday voqeani yozuvchiga telegram orqali yozib yetkazib bera olganligida, hech qaysi voqeani yashirmasdan boricha yozib yozuvchini kitob chiqarishga unday olganligidir. Bonu o`qituvchi oilada g`am tashvish ko`rmay, beg`ubor bolalik onlarini o`tkazib hayotida qora, g`amli kunlar qachon boshlanib qo`yganligi haqida ko`p o`ylaydi va bu misralarni hayolidan ko`p bora o`tkazadi. Bu misralar sizni ham befarq qoldirmaydi deb o`ylayman. “Hayotingni o`zgartirgay bir inson va bir kalom, o`shal inson sen o`zingsan, endi so`zni top tamom”. Uning hayotida bobosi, otasi, onajonisi unga eng qadrli insonlar bo`lib qoldi, lekin qolganlar qaysidir ma`noda uning qadrini, his tuyg`ularini, eng beg`ubor damlarini o`z manfaatlarini yo`lida qurbon qiladi. Tug`ishgan akasi bobosidan Bonuga qoldirilgan me`rosni hech bo`lmasa eslab yurishi uchun ham qoldirmagani, bobo me`ros narsani saqlab qolish o`rniga o`z nafi yo`lida ishlatgani unga juda og`ir botadi. Go`zal Bonuning tanasida oq dog`lar paydo bo`lib uning taqdirini butunlay o`zgarib ketishi, sevaman deb yuz o`g`irgan yigiti Olmosning xiyla nayranglari, uni Rossiyaga ketishi va u yerda garchi unga begona bo`lsada tug`ishganidek mehribonchilik ko`rsatib unga yordam qo`lini cho`zib odamiylikning eng ezgulikka yo`g`irilgan jihatlarini ko`rib shukur qilasisiz. Bu asarni o`qib xulosa qilar ekanman inson o`z taqdirini qay tarfga boshlashi faqatgina o`z qo`lida ekanligini tushinib yetdim. Bir inson taqdirida qanchadan-qancha insonlar ta`siri bo`lishi esa jamiyatga ham o`z ta`sirini ko`rsatmay qolmaydi. Sizlarga ushbu asar haqida fikr mulohazalarimni bayon qildim. Romanni o`qib chiqqaningizdan keyin anchagacha asar voqealari sizni o`z ta`sirida qoldirishiga ishonaman. Bu asarni o`qishni tavsiya qilaman.

**Axborot bibliografiya xizmati rahbari Munira Raximova Alimovna.**

